



NEMIS TILI DARSLARIDA ANNEMARIYE SHIMMEL ILMIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVYIY-AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Po'latova Zubayda Abduravupovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17720010>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 23-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 26-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

Annemarie Schimmel, nemis tili, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tasavvuf, interaktiv metodlar, ta'lim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Annemarie Schimmelning tasavvuf, islom falsafasi va Sharq adabiyotiga oid ilmiy merosini nemis tili darslarida ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida qo'llash imkoniyatlari yoritiladi. Oliy ta'lim davlat standartlarida belgilangan kompetensiyalarni shakllantirish nuqtai nazaridan Schimmel asarlaridan foydalanishning didaktik afzalliklari tahlil qilinadi. Maqolada uning asarlaridan olingan matnlar yordamida grammatika, nutq o'stirish va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish usullari, shuningdek, munozara, rolli o'yinlar, ijodiy esse va guruh loyihalari kabi interaktiv metodlar orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish yo'llari ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari Schimmel merosidan foydalanish til o'rgatish jarayonini boyitishi bilan birga, talabalarda insoniylik, bag'rikenglik, halollik kabi fazilatlarini rivojlantirishga samarali xizmat qilishini ko'rsatadi.

Annemariye Schimmelning ma'naviy-axloqiy qarashlari bugungi globallashuv davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ilmiy izlanishlari, ayniqsa, tasavvuf, islom falsafasi va Sharq adabiyotiga oid tahlillari chuqur ma'naviy mazmunga ega bo'lib, har bir insonni ichki dunyosini boyitishga, ma'naviy yetuklikka erishishga xizmat qiladi. Schimmel tasavvuf orqali inson qalbidagi samimiyat, kechirimlilik, kamtarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarini ochub beradi va bu qadriyatlar uning ilmiy asarlarining asosini tashkil etadi. Shu jihatdan Schimmelning ilmiy qarashlari ta'lim tizimida, xususan, nemis tili darslarida axloqiy-tarbiyaviy komponent sifatida o'ziga xos o'rin tutadi. Vaholanki, oliy ta'lim DTS talablariga asoslanib shu o'rinda bir narsani ta'kidlash joizki, bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan umumiy malaka talablari sirasiga Vatan tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi; insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olishi ham kiradi.[1]

Annemariye Shimmelning ilmiy merosini nemis tili darslari kontetntiga kiritish quyidagi usullar va yo'nalishlar orqali amalga oshirish mumkin:

1. Annemariye Shimmelning Islom madaniyati, tasavvuf va Sharq adabiyotiga oid asarlaridan parchalar dars materiali sifatid tanlab olinadi.

2. Til ko'nikmalarini shakllantirishga oid fanlarni o'qitishda darsda Annemariye Shimmelning ilmiy merosiga oid madaniy, ma'naviy va axloqiy muammolarni muhokama qilish uchun savollar va mavzular berish, talabalarga uning qarashlari asosida madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga qaratilgan munozaralar tashkil etish;

3. Grammatika o'rgatish va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda Annemariye Shimmelning ma'naviy-axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi matn va misollar kiritish;

4. Mustaqil ishlarni tashkil etishda Annemariye Shimmel asarlari asosida taqdimotlar tayyorlashga yo'naltirish;

5. Multimedia vositalaridan foydalangan holda Annemariye Shimmelning hayoti va faoliyati haqida video yoki audio materiallardan foydalanish orqali bilimlarni boyitish; ta'lim platformalari onlayn resurslarini yaratishda uning ilmiy merosiga oid kontentlardan foydalanish.

Nemis tili darslarida Shimmelning merosidan foydalanish orqali talabalarga til o'rgatish bilan birga ma'naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish mumkin. Misol sifatida Annemariye Shimmelning "Mystische Dimensionen des Islam" (Islomning tasavvufiy o'lchovlari), hamda "Va Muhammad Uning payg'ambaridir" yoki "Morgenland und Abendland. Mein west-östliches Leben") Tong va tun mamlakati. Mening g'arbu sharqdagi hayotim) kabi asarlaridan iqtiboslar matn sifatida berilib, bu matnlar asosida axloqiy qadriyatlar muhokama qilinadi. Har bir dars mazmuniga insoniylik, rahm-shafqat, halollik, fidoyilik kabi tushunchalarni singdirish orqali talabalarda ma'naviy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyat hissi kuchaytiriladi.

Namuna sifatida Annemariye Shimmelning "Morgenland und Abendland. Mein west-östliches Leben" asaridan olingan parchani bir nemis tili darsi misolida keltiramiz.

Mavzu: Grammatik: Präteritum.[2]

Ushbu mashqdan grammatik mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Bunda asardan parcha beriladi.

1-Topshiriq: Berilgan matnni o'qing. Unda berilgan fe'llarni belgilang.

Die Menschen schlafen und wenn sie sterben, erwachen sie

Der Winter 1929 war sehr hart, und ich wurde krank-Nierenentzündung. Ich konnte zu Hause bleiben, Lehrer und Klassenkameradinnen brachten Bücher, Mama las mir vor oder erfand wundervolle Märchen von Affen, Giraffen und der Apfelsine. Aber es gab ein Buch, daß mich entscheidend beeinflusste: Ein Märchenbuch von 1870, daher in alter Orthographie gedruckt, was mir die Gelegenheit gab, alle „Fehler“ zu verbessern (Vorstufe zum späteren Korrekturlesen!). Unter den verschiedensten Märchen aus aller Welt war eins, das ich sonst nirgendwo gefunden habe. Es hieß *Padmanaba und Hassan* und erzählte von einem indischen Weisen, der einen Jüngling in Damaskus in die höhere Weisheit einführt und ihn schließlich durch ein Wunderreich tief unter einen Brunnen leitet. Dort, in einem Gewölbe voll der köstlichsten Juwelen, lag der größte Fürst der welt aufgebahrt, und über seinem Katafalk stand geschrieben: „Die Menschen schlafen und wenn sie sterben, erwachen sie.“ Das Wort traf mich wie ein Blitz. Zehn Jahre später erfuhr ich, daß

es dem Propheten Muhammad zugeschrieben wird und daß die Sufis, die Mystiker des Islam, es besonders liebten. In diesem Moment wußte ich- vielleicht noch nicht in konkreter Form-, daß hier mein Weg war: Der Orient war das Ziel, der Orient der mystischen Weisheit. Und das Zusammentreffen des indischen Weisen mit dem muslimischen Jüngling deutete-wie ich viel später verstand-auf meinen künftigen Schwerpunkt, die indomuslimische Kultur.

(Aus dem Buch „Morgenland und Abendland. Mein west-östliches Leben“ von Annemarie Schimmel)

Matn tarjimasi: Odamlar uxlaydi, va o'lganda uyg'onadilar

1929-yilgi qish juda sovuq bo'ldi va men buyrak yallig'lanishiga chalindim. Uyda qolishga majbur bo'ldim, o'qituvchilar va sinfdoshlar kitoblar olib kelishdi, onam menga ovoz chiqarib o'qib berardi yoki maymunlar, jirafalar va apelsin haqidagi ajoyib ertaklarni o'ylab topardi. Ammo bir kitob meni juda ta'sir qildi: 1870-yilda nashr etilgan ertaklar kitobi, eski imloda bosilgan bo'lib, menga undagi barcha "xatolarni" tuzatish imkoniyatini berdi (bu keyinchalik tahrirlashga ilk qadam edi!). Dunyo bo'ylab turli xil ertaklar orasida men boshqa joyda uchratmagan bir hikoya bor edi. Uning nomi "Padmanaba va Hassan" edi va u hind donishmandi haqida bo'lib, u Damashqdagi yosh yigitni oliy donishmandlikka yo'naltiradi va nihoyat uni chuqur quduq ostidagi mo'jizaviy saltanatga olib boradi. U yerda, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan gumbaz ichida dunyoning eng buyuk hukmdori yotardi, va uning tobuti ustida shunday yozilgan edi: "Odamlar uxlaydi, va o'lganda uyg'onadilar." Bu so'zlar meni yashin kabi urdi. O'n yil o'tib, men bu ibora Muhammad payg'ambarga nisbat berilishini va islomiy mistiklar, ya'ni sufi avliyolarining uni juda yaxshi ko'rishlarini bildim. Shu lahzada men angladim—ehtimol hali aniq shaklda emas—lekin bu mening yo'lim edi: Sharq mening maqsadim edi, mistik donishmandlikning Sharqi. Hind donishmandi va musulmon yigitining uchrashuvi esa—men juda keyin tushunib yetdim—mening kelajakdagi ilmiy yo'nalishim, hind-musulmon madaniyatiga ishora qilardi. (Annemariye Shimmelning „Tong mamlakati va tun mamlakati. Mening g'arbu sharq hayotim“ nomli kitobidan)¹


2-topshiriq: Matndagi Präteritum zamonida berilgan fe'llarni ikki ustunga ajratib yozing.

<i>Starke und unregelmäßige Verben</i>	<i>Schwache Verben</i>
war-sein	deutete-deuten
gab-geben	liebte-lieben
wußte-wissen	

Ushbu mavzuni mustahkamlashda yana „Chigil yozdi“ o'yinidan foydalanish mumkin. Talabalarda o'qilgan matn asosida gaplar bo'laklarga bo'lingan holda tarqatiladi. 3-topshiriq: Gapni to'g'ri tartibga keltirgan holda doska yonida qator bo'lib turing. O'tirgan talabalar yana gapni grammatik jihatdan to'g'ri tartibda joylashtirilganini tekshiradilar.

Bundan tashqari „Kim topqir“ o'yini orqali matnda berilgan so'zlarning nemis tilidagi izohini to'g'ri tanlash vazifasi topshiriladi. Masalan:

¹ Tarjima tadqiqotchi tomonidan amalga oshirilgan.



Bu matn ustida ishlash orqali talabalar nafaqat grammatik mavzuni o'zlashtiradilar, balki Annemariye Shimmelning hayoti, kelajakdagi tanlagan yo'li haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, uning qanchalik yoshligidanoq kitobga, adabiyotga oshno qalb sohibi bo'lganligining guvohi ham bo'ladilar.

Annemariye Shimmel asarlaridan olingan iqtiboslarni nemis tili darslarida qo'llash, ularni lingvistika nuqtai nazaridan, pedagogika nuqtai nazaridan muhokama qilish, ma'nosini tushunib yetish, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid jihatlarini ko'rsatib berish, iqtiboslarda keltirilgan fazilatlarini talabalar ongiga singdirish, hayotda ularni qo'llay olishga o'rgatish tadqiqotimizning bosh maqsadlaridan hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini o'rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

Munozarali darslar. Bunda Annemariye Shimmel qarashlari asosida dars mavzularida axloqiy masalar muhokama qilinadi.

Rolli o'yinlar. Bunda talabalar axloqiy vaziyatlarga oid rollarni ijro etib, o'z xulqini baholaydi.

Esse va ijodiy yozuvlar. "Bag'rikenglik nima?", „yaxshilik va yomonlik haqida Shimmel qanday fikr bildirgan“ kabi mavzularda ijodiy ishlanmalar yozdiriladi.

Taqdimotlar va guruh loyihalari: Talabalar Shimmel asarlarida ko'rsatilgan axloqiy muammolarni jamoaviy tahlil qilib, o'z yechimlarini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, bu yondashuvlar yordamida talabalar nafaqat til o'rganish ko'nikmalari shakllanadi, balki ularda ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi ortadi. Ayniqsa bugungi zamonaviy ta'limda har bir darsni tarbiyaviy kontent bilan boyitish muhim sanaladi. Annemariye Shimmelning boy ilmiy merosi esa ushbu jarayonda ishonchli asos va boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. SamDCHTI ning 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili) yo‘nalishi uchun tuzilgan amaliy grammatika va fonetika fani uchun tuzilgan sillabus. Samarqand. 2024

2. Schimmel A.Morgenland und Abendland. Mein west-östliches Leben. V.C.H.Beck München. 2003.

[https://lex.uz/Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti](https://lex.uz/Oliy%20ta%27limning%20Davlat%20ta%27lim%20standarti)



INNOVATIVE
ACADEMY